

LOTIN TILINING TIBBIYOT SOHASIDAGI O'RNI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Normuradova Nasiba

Zarmed universiteti Tillar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: normuradova74@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogikada esa tibbiy ta'limni yanada samarali qilish uchun interfaol texnologiyalarni qo'llash ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi va talabalar faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, mutaxassis, lotin tili, shifokor, imkoniyat.

Lotin tilining tibbiyot sohasidagi o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimdir. Tarixan, tibbiyotda lotin tili jahon bo'ylab tibbiyot mutaxassislari o'rtasida o'zaro aloqaning asosiy vositasi sifatida xizmat qilgan. Bugungi kunda ham lotin tili shifokorlar uchun umumiy bilim va tushunish tiliga aylangan. Bu tilning tibbiyotda ishlatilishi, nafaqat shifokorlar, balki tibbiyotga oid ta'lim olishni boshlagan talabalarga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Lotin tili tibbiyotda an'anaviy ravishda ko'plab ilmiy asarlarni yozishda qo'llanilgan, ayniqsa anatomiya, farmakologiya va biokimyo kabi sohalarda keng tarqalgan.

Lotin tilini bilish tibbiyotda ishlovchi mutaxassislarga dunyoning turli burchaklaridagi boshqa mutaxassislar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu, nafaqat ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, balki dunyo miqyosida tibbiy yangiliklar va tadqiqotlar almashinuvini tezlashtiradi. Lotin tili shifokorlar va tibbiyot talabalari o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlashda, shu bilan birga, tibbiy bilimlarni aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy pedagogikada esa tibbiy ta'limni yanada samarali qilish uchun interfaol texnologiyalarni qo'llash ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi va talabalar faol ishtirokini ta'minlashga yordam beradi. Tibbiyot universitetlarida ta'lim jarayonida talabalarga nafaqat kasbiy bilimlar, balki madaniy ko'nikmalarni ham o'rgatish zarurligi ta'kidlanadi. Ta'lim jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham egallashlari kerak.

Tibbiyot institutlarining dastlabki bosqich talabalariga lotin tili va tibbiy terminologiya fanini o'rganish topshiriladi. Ushbu fan ko'plab talabalar uchun yangi va murakkab bo'lib, ularni o'zlashtirishda ba'zan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Lotin tilidagi murakkab anatomiya, histologiya, farmakologiya va klinik terminologiyalarni to'g'ri o'rganish va tarjima qilishda talabalarga turli xil qiyinchiliklar duch keladi. Ayniqsa, aniq va to'g'ri tarjima qilishda, ya'ni moslashgan va moslashmagan aniqlovchilarni o'rganishda talabalarga yordam berish zarur. Bu jarayonni yanada osonlashtirish uchun interfaol o'quv metodlari va innovatsion texnologiyalarni qo'llash kerak.

Lotin tili o'qituvchilari va talabalari uchun tibbiyotda to'g'ri va aniq terminlarni tushunish va qo'llashda qo'llaniladigan metodlarni takomillashtirish, tibbiyot sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, tibbiyot talabalari uchun

lotin tilini o'rganish nafaqat bilim olish, balki tibbiy madaniyatni va ilmiy tafakkurni rivojlantirishda ham asosiy vosita hisoblanadi.

Tibbiyotda lotin tilini o'rganishning asosiy maqsadi – tibbiy terminologiya va atamalarni o'rganishdir. Ushbu atamalar tibbiy mutaxassislariga o'z kasbiy sohalarida o'zaro tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Shifokorlar va tibbiyot xodimlari xalqaro atamalardan foydalangan holda, turli mamlakatlardagi mutaxassislar bilan oson aloqada bo'lishlari mumkin. Tibbiyotda ishlatiladigan ko'plab atamalar yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan bo'lib, ular ilmiy va amaliy tibbiyotning asosiy vositalarini tashkil etadi. Misol uchun, “epidemiya”, “Bronx”, “herpes”, “karsinoma”, “emfizema” kabi atamalar lotin tilidan kelib chiqqan. Ushbu atamalar dunyo bo'ylab shifokorlar uchun tushunarli va yagona ma'lumotnoma sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda lotin tili faqat qadimgi Rim madaniyatining yodgorligi sifatida emas, balki zamonaviy ilmiy va tibbiy sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Lotin tili biologiya, huquqshunoslik va tibbiyotda ilmiy terminologiyaning asosiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, tibbiyotda lotin tili va yunon tilining asoslarini o'rganish, mutaxassislariga o'z kasbiy bilimlarini yanada chuqurroq anglash va yangilab borilayotgan tibbiy bilimlarga tezkor kirish imkoniyatini taqdim etadi.

Lotin tili, o'lik til bo'lishiga qaramay, tibbiy ta'limda va ilmiy sohalarida katta ahamiyatga ega. Oliy tibbiyot o'quv yurtlarida lotin tili va tibbiyot terminologiyasini o'rganish jarayonida turli o'qitish metodlari, masalan, kompyuterda o'qitish, muhokama, keys metodi va rolli o'yinlar kabi interfaol metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar talabalarga tibbiyot terminologiyasini chuqur o'rganish va uni kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatini beradi. Tibbiyot sohasidagi yangiliklarga tezkor moslashish va tibbiy bilimlarni aniq va to'g'ri tushunish uchun lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganish, mutaxassislar uchun zaruriyatga aylangan.

Tibbiyotda anatomik atamalar va terminologiyaning o'rni nihoyatda muhimdir. Ularning to'g'ri tushunilishi va ishlatilishi shifokorning kasbiy faoliyatini samarali olib borishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, lotin tili tibbiyotda bilimlarni uzatishda va xalqaro miqyosda o'zaro tushunish jarayonida muhim vosita hisoblanadi. Tibbiyot sohasida ishlatiladigan ko'plab atamalar, ayniqsa, anatomik va fiziologik terminlar, lotin tilidan olingan bo'lib, ular dunyo bo'ylab shifokorlar va tibbiyot xodimlari o'rtasida umumiy tushunishni ta'minlaydi.

Dasturlashtirilgan ta'lim metodlari, shu jumladan, interfaol o'qitish usullari talabalarga didaktik materiallarni yaratishda yuqori samaradorlikni ta'minlashga imkon beradi. Bu metodlar o'quvchilarning o'zaro hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi va ularga ko'proq amaliy ko'nikmalarni o'rgatadi. Rolli o'yinlar, xususan, talabalarga qarama-qarshi manfaatlarga ega, shaxsiylashtirilgan vaziyatlarni o'ynash imkonini beradigan o'quv usulidir. Ushbu metod, ayniqsa, “Klinik terminologiya” mavzusida seminarlar o'tkazishda samarali natijalar beradi. Rolli o'yinlar orqali talabalar tibbiy atamalar va tushunchalarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning bilimlarini mustahkamlashga va lotin tilidagi terminlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bu metod, o'z navbatida, talabalarga lotin tilidagi atamalarni o'zlashtirish va tushunish jarayonini yanada samarali qiladi. Bunday o'quv usullari o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham taqdim etadi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Akhtamovna, M. O. (2023). Development of Russian-Language Competence of Medical Students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 16, 46-48.
2. О Мухаммедова. Иностранный язык для студентов вузов задачи обучения. Му аллим ъўм зликсиз билимлендири, 44
3. Abrayeva, S. (2022). Lotin tilining tibbiyot terminologiyasida roli (Doctoral dissertation, Uzbekistan, Tashkent).
4. Esonovna, A. S. (2023). Tibbiyot terminologiyasida lotin va yunon tillarining ahamiyati.
5. Esonovna, A. S. (2021). Application of latin and greek synonymic morphemes in medical terminology of the french language.
6. Gulfura, T., Bobojonova, S., Shakhnoza, A., Komila, S., & Doniyor, A. (2019). The role of task based learning in teaching english.